

# **TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING**

**O‘RNI**

**Umarova Z.O**

**Jizzax politexnika instituti**

**Iqtisodiyot va menejment kafedrası katta o‘qituvchisi**

**Kuzmina Svetlana Nikolaevna**

**Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Annotatsiya: ushbu maqolada tijorat banklari faoliyati haqida ma’lumot hamda ularda risklarni boshqarish jarayoni masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashuv, ijtimoiy-iqtisodiy, inqirozlar, bankrotlik, bank, Bazel qo‘mitasi, mezonlar.

## **РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

### **КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

**Умарова З. О. Джизакский политехнический институт**

**Преподаватель кафедры экономики и менеджмента**

**Кузьмина Светлана Николаевна.**

**Санкт-Петербургский государственный электротехнический**

**университет, Доктор экономических наук, профессор**

Аннотация: В данной статье освещается информация о деятельности коммерческих банков, а также вопросы процесса управления рисками в них.

Ключевые слова: интеграция, социально-экономический, кризисы, банкротство, банк, Базельский комитет, критерии.

## **ROLE OF RISK MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF**

### **COMMERCIAL BANKS**

**Umarova Z.O**

**Jizzakh Polytechnic Institute**

**Teacher of the Department of Economics and management**

**Kuzmina Svetlana Nikolaevna**  
**Saint Petersburg State Electrotechnical University**  
**Doctor of economic sciences, professor**

Annotation: this article covers information about the activities of commercial banks, as well as the issues of the risk management process in them.

Keywords: integration, socio-economic, crises, bankruptcy, bank, Basel Committee, criteria.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi sharoitida, shuningdek butun dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda xalqaro bozorlardagi kuchli raqobat jarayonlari bank tizimida risklarni boshqarishning mavjud usullarini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etmoqda. Xalqaro bank amaliyotida faoliyat yuritadigan qator tijorat banklari Markaziy banklar va xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan yagona me‘yor va mezonlarni bajargan bo‘lsada, dunyoning turli qit‘alarida sodir bo‘layotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida bankrotlik holatiga tushib qolmoqda.

Tijorat banklari risklarini boshqarish usullarini takomillashtirishda mamlakatning geografik joylashuvi, iqtisodiyotni boshqaruv tizimi, aholining mentaliteti, jamiyatning axborotlashganligi hamda mamlakat Markaziy banki pul-kredit siyosatining xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklarida risklarni minimallashtirishga risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishiladi. Shu maqsadda 2020-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli “2020-2025 -yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unda strategiya doirasida keyingi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Mazkur yo‘nalishlarda bank tizimiga zamonaviy yechimlarni joriy qilish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘shishiga amal qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, davlat ulushi

mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlarni keng joriy etish kabi asosiy vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda banklarda davlat ulushini kamaytirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi bank risklarini sifat jihatdan ijobiy tomonga harakatlanayotganligini ko‘rsatib beradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlari, tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida barcha xo‘jalik subyektlar faoliyati rejalashtirilgan bo‘lib, asosiy maqsad rejani bajarishga qaratilgan, rejaning bajarilmagan qismi zarur hollarda yuqori tashkilot yoki byudjet mablag‘lari hisobidan qoplab berilgan. Shuning uchun bu davrda risk degan tushuncha bo‘lmagan.

Bozor munosabatlarini tashkil qilish va olib borish butunlay boshqa tamoyillarga tayanadi. U tezkor taraqqiyot va rivojlanish, turli o‘zgarishlar, raqobat, innovatsiya, islohotlar va boshqalarga asoslanadi. Bunday jarayonlar bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir subyektning ishiga ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki tijorat banklari faoliyatining o‘zi riskli bo‘lganligi uchun bozor munosabatida yuzaga keladigan islohotlar, o‘zgarishlar, tebranishlar, inqirozlar va boshqa holatlarni birinchi bo‘lib banklar seza boshlaydi.

Zamonaviy bank tizimini risksiz tassavur qilib bo‘lmaydi. Bankning risksiz operatsiyasi yo‘q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog‘liq bo‘lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Binobarin, bank amaliyotida riskni umuman yo‘q qilib bo‘lmasada, uni oldindan ko‘ra bilish va kamaytirish choralarini ko‘rish lozim. Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga

qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ham ko'zlangan natija yuqori foyda olishdan iborat. Foydaga erishish jarayoni esa doimo risk bilan bog'liq bo'ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi masala bu risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir. Bu, o'z navbatida, bank risklarini aniqlash, o'rganish va samarali boshqarishni talab qiladi.

Bank faoliyatida risklar yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud;

-bozorni yaxshi o'rganmaslik;

-resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotning yetarli emasligi;

-kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;

-tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;

-subyektlar yoki mijozlarning ongi. Mablag'dan foydalanish bo'yicha bilimi.

Yuqoridagilarga asoslanib bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larning bir qismini yo'qotish yoki daromad olmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit investitsiya, valyuta) o'tkazishdir degan ta'rifni keltiramiz.

Bank faoliyatining risk bilan bog'liq bo'lishi xarajatlar, zararlar va yo'qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishi va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo'lishini taqozo etadi. Harajatlar, zarar, yo'qotishlar risk hisoblanmaydi. Bu tushunchalarning har biri o'z mohiyatiga ega.

Risk keng ma'noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko'p qirrali tushunchadir. Bank riskining mohiyati haqida ko'pgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan bank tavakkalchiligi, kredit xavf-xatari, bank xatari, yo'qotishlar, ehtimollik, qaltislik, ikkilanish, noaniqlik kabi qator tushunchalar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida bank riski-tavakkalchiligi bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog'liq

bo‘lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo‘lgan moliyaviy zararlar ko‘rish va (yoki) bank likvidligi (bank o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to‘liq yoki qisman yo‘qotish xavfining mavjudligi deb ta’rif beriladi.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo‘yicha aniq guruhlariga bo‘lish bilan bog‘liq. Risklar tasnifi, har birining umumiy tizimdagi o‘rnini belgilash ularni boshqarishning samarali usullarini qo‘llash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Sayfullayev, N.Komilova. Sanoat iqtisodiyoti. Toshkent, “G‘afur G‘ulom” nashri. 2019-yil. 123-128-betlar.
2. Bozorov B.U., Jalolov K.M. Industrial va innovatsion iqtisodiyot. Samarqand Davlat Universiteti, 2019-yil. 56-60-betlar.
3. Sirojiddinov I., Hojiboeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta’lim. T.: 2017 № 4, 36 b.
4. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda kadrlarning gender tengligi." *Educational Research in Universal Sciences* 2.3 (2023): 208-215.
5. Umarova, Z. O. "Business opportunity for tourism development." *Экономика и социум* 10 (2020): 275-278.
6. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." *Экономика и социум* 5-1 (2021): 376-379.
7. Obidova, F., Umarova, Z., & Rashidova, B. (2024, March). Opportunities to increase the efficiency of the development of tourism services (In the example of Jizzakh Region). In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 3045, No. 1, p. 050016).
8. Odilovna, U. Z., & Yangiboyevna, N. Z. (2023). YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA DOIR KADRLAR TAYYORLASHDA DAVLATNING

ROLI. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 772-778.

9. [www.mf.uz](http://www.mf.uz). (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi)